

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**SULTONOV ABDULLA AZAMATOVICH**

**JINOYAT-PROTSESSUAL MUNOSABATLARDA XARAJATLAR:  
NAZARIYA VA AMALIYOT**

**12.00.09 - Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Sultonov Abdulla Azamatovich**

Jinoyat-protsessual munosabatlarda  
xarajatlar: nazariya va amaliyot .....3

**Sultanov Abdulla Azamatovich**

Издержки в уголовно-процессуальных  
отношениях: теория и практика .....31

**Sultanov Abdulla Azamatovich**

Costs in criminal-procedural relations:  
theory and practice .....61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....66

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**SULTONOV ABDULLA AZAMATOVICH**

**JINOYAT-PROTSESSUAL MUNOSABATLARDA XARAJATLAR:  
NAZARIYA VA AMALIYOT**

**12.00.09 - Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Yu170 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va Ziyonet axborot ta'lim portalida (<http://library.ziyonet.uz/uz>) joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:** **Muxitdinov Faxriddin Muxitdinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Mirazov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Gordeyev Sergey Nikolayevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat yuridik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 8-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1438-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 26-iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil 25 -iyundagi 4-raqamli reestr bayonnomasi).



**A.S. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**B.A. Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

**KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo mamlakatlarida jinoyatlarni tez va to‘la ochish, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlovchi odil sudlov sifatini oshirishga obyektiv zarurat tariqasida qaraladi. Ushbu omillar tufayli jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda sud tizimi xarajatlari davlat byudjetida salmoqli ulushni egallaydi. “2023-yilda AQSh sudlar uchun 8,6 mlrd<sup>1</sup>, politsiyaga 37,65 mlrd<sup>2</sup> dollar sarflab, jahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project) reytingida 29-o‘rinda turadi<sup>3</sup>. Mazkur reytingda politsiya xarajatlarining YAIMdagi ulushiga ko‘ra dunyo yetakchilari bo‘lgan Kosta-Rikaga (2,5 foiz) 36, Chiliga (1,9 foiz) 48-o‘rin berilgan<sup>4</sup>. Xalqaro jinoyatchilik indeksida esa AQSh 58, Kosta-Rika 43, Chili 32-pog‘onada joylashtirilgan”<sup>5</sup>. Bu huquqiy tartibotni barqarorlashtirish uchun sarflangan xarajatlar bilan odil sudlovning samaradorligi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash, jinoyatchilikning ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarini hisoblash borasidagi yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari, shuningdek, nufuzli tadqiqot markazlarida (Center of the Mind)<sup>6</sup> jinoyatchilikka qarshi kurashish, shu jumladan, odil sudlov xarajatlarini maqbullashtirish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb obyektiga aylangan. Bu borada, ayniqsa, jinoyat ishlarini yuritish qiymatini aniqlash, jinoyatchilikning bevosita va bilvosita xarajatlarini o‘rganish, alohida jinoyat turlari bo‘yicha ish yuritish xarajatlarini hisoblash, davlat mablag‘larini oqilona sarflagan holda jinoyat protsessida shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini muhofazasining yanada samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, mazkur munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi “qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish yo‘nalishi”da<sup>7</sup>, “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasiga muvofiq jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlash siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2023) qarorining qabul qilinishi hamda 2022 – 2023-yillarda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun 55 mlrd. so‘m sarflangani<sup>8</sup> yuqoridagi fikrlarni to‘la asoslaydi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi “Inson – jamiyat – davlat” prinsipi inson huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kengaytirishni, jinoyat

<sup>1</sup> <https://www.uscourts.gov/sites/default/files/FY%202023%20Congressional%20Budget%20Summary.pdf>.

<sup>2</sup> <https://www.policegrantshelp.com/news/2023-doj-budget-highlights-enforcement-and-safety-prioritiespoyzBoJ8Cch9 WXu2/>.

<sup>3</sup> <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2023/Criminal%20Justice>.

<sup>4</sup> [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp).

<sup>5</sup> [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp).

<sup>6</sup> <https://www.rand.org/well-being/justice-policy/centers/quality-policing/cost-of-crime.html>; <https://ocindex.net/>; <https://northac.org/>; <https://www.crim.cam.ac.uk/research/thecambridgecrimeharmindex>.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni //— URL:<https://lex.uz/ru/docs/6600413#6605156>.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 29.02.2023 yildagi 04-08-473/280-son aloqa xati.

protsessidagi mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qiladigan protsessual xarajatlar institutini takomillashtirishni taqozo etadi. Zotan, protsessual xarajatlarni qoplash mexanizmining yetarlicha shakllanmagani oqibatida amalda to‘la ishlamayotgani, xarajatlarni to‘lashning protsessual asoslaridagi bo‘shliqlar hamda davlat byudjetidan sarflangan mablag‘larni undirish tartibidagi noaniqliklarni bartaraf etish, shuningdek, “Oqilona xarajat – sifatli odil sudlov” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq xarajatlarni tejagan holda sifatli odil sudlovga erishish maqsadlari jinoyat-protsessual munosabatlardagi xarajatlarning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi (2023) Konstitutsiyasi, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi (2023) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019) Qarori, “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020) Farmoni, “Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022) Qarori, “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2023), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari (2023), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi (2020), “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2023) Qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>9</sup>. Jinoyat-protsessual munosabatlardagi xarajatlarning huquqiy, tashkiliy-amaliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy (fundamental) tadqiqotlar dunyodagi yetakchi universitetlar va tadqiqot markazlari, jumladan, Vanderbilt va Chikago universitetlari, RAND – ijtimoiy va iqtisodiy farovonlik markazi, Brennan adliya markazi (AQSh), Kembridj universiteti qoshidagi Kriminologiya instituti, Axborot siyosati guruhi (Angliya), Kiel jahon iqtisodiyoti va Bayreut universiteti (Germaniya), Toronto, Ryerson universitetlari (Kanada), Tohoku va Nihon universitetlari

---

<sup>9</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: <https://news.vanderbilt.edu>, [www.cam.ac.uk](http://www.cam.ac.uk), [www.journals.uchicago.edu](http://www.journals.uchicago.edu), [bjs.ojp.gov](http://bjs.ojp.gov), [www.rand.org](http://www.rand.org), [www.nccourts.gov](http://www.nccourts.gov), [www.crim.cam.ac.uk](http://www.crim.cam.ac.uk), [www.criminaldefensejapan.com](http://www.criminaldefensejapan.com), [www.arab-reform.net](http://www.arab-reform.net), [akadmvd.uz](http://akadmvd.uz).

(Yaponiya), EIPR – shaxsiy huquqlar bo‘yicha Misr tashabbus guruhi, Nijniy Novgorod IIV Akademiyasi, Tyumen IIV yuridik instituti (Rossiya), Belarus Respublikasi IIV Akademiyasi, Qozog‘iston Bosh prokuraturasi HMQO Akademiyasi idoralararo ilmiy-tadqiqotlar instituti va O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida olib borilmoqda.

Jahonda jinoyat-protsessual munosabatlarda xarajatlar institutiga doir tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan: jinoyat turlari bo‘yicha ish yuritish xarajatlarining miqdori hisoblangan (RAND – ijtimoiy va iqtisodiy farovonlik markazi); jinoyatchilikning iqtisodiy xarajatlari tuzilishiga ko‘ra, bevosita hamda bilvosita xarajatlarga ajratilgan (AQSh, Vanderbilt, Chikago universitetlari, AQSh Adliya statistika byurosi); jinoyat ishi bo‘yicha sarflangan xarajatlarning tahlili asosida jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish istiqbollari, jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar indeksini aniqlash mezonlari belgilangan (Angliya, Kembridj universiteti, Kriminologiya instituti); voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha ish yuritish xarajatlarini hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan (Germaniya, Kiel jahon iqtisodiyoti, Bayreut universitetlari); jinoyat natijasida yetkazilgan zarar, shuningdek, jinoyat ishlarini yuritish xarajatlarini hisoblashda unga ta‘sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni inobatga olish zarurati asoslantirilgan (Yaponiya, Tohoku, Nihon universitetlari); jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi va jins toifalariga ko‘ra jinoyatchilikning iqtisodiy xarajatlarini hisoblash uslubiyoti shakllantirilgan (Kanada, Toronto, Riyerson universitetlari); jinoyat ishlarini yuritish qiymati, jinoyat protsessining iqtisodiy asoslari, protsessual xarajatlarning undagi o‘rni aniqlashtirilgan (Rossiya, Nijniy Novgorod IIV Akademiyasi); protsessual xarajatlar tushunchasi, ular doirasini kengaytirish, ularni hisoblash va taqsimlash tartibini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan (Rossiya, Tyumen IIV yuridik instituti); protsessual xarajatlar institutiga doir ilmiy-nazariy xulosalar kengaytirilgan, protsessual xarajatlarni to‘lash tartibi rivojlantirilgan (Belarus Respublikasi IIV Akademiyasi); protsessual xarajatlarni undirish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan (Qozog‘iston HMQO Akademiyasi idoralararo ilmiy-tadqiqotlar instituti); protsessual xarajatlarni hisoblash va to‘lash tartibiga oid uslubiy tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi); protsessual xarajatlarning yuridik tabiatini aniqlashtirish, ularni to‘lash va undirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilib, ish yuritish xarajatlarini iqtisod qilish yo‘nalishlari belgilab berilgan (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).

Shu bilan birga, bugungi kunda dunyoda protsessual xarajatlar institutiga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini aniqlash maqsadida: aniq jinoyat turlari bo‘yicha ish yuritish xarajatlarni belgilash; jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatining ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarini hisoblash; protsessual xarajatlarni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish; jinoyat protsessida shaxs, davlat va jamiyatning mulkiy manfaatlarini muhofaza qilish; jinoyat ishlari bo‘yicha sarflanadigan mablag‘larni iqtisod qilgan holda samarali odil sudlovni ta‘minlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz olimlaridan G.A. Abdumajidov, I.R. Astanov, D.B. Bazarova, S.N. Gordeyev, I.B. Jo'rayev, Z.F. Inog'omjonova, M.X. Kadirova, F.M. Muxitdinov, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, E.X. Norbutayev, M.A. Rajabova, B.A. Rajabov, B.N. Rashidov, A.X. Raxmonqulov, T.R. Saitbayev, B.A. Saidov, G.Z. To'laganova, D.R. To'rayeva, A.A. Xamdamov, N.N. Xayriyevlar tomonidan protsessual xarajatlar tushunchasining yuridik tavsifi, jinoyat ishida mulkiy manfaatlari himoya qilinadigan protsess ishtirokchilarining huquqiy maqomi, institutning tashkiliy-institutsional asoslari va rivojlanishi, xarajatlarni iqtisod qilish mexanizmlariga oid umumiy masalalar tadqiq etilgan. Xususan, F.M. Muxitdinov – jinoyat protsessini differentsiyalash orqali xarajatlarni oqilona taqsimlash, I.R. Astanov – jinoyat protsessida mulkiy manfaatlari himoya qilinadigan ekspertlar, mutaxassislarining isbotlash jarayonidagi ishtirokini, I.B. Jo'rayev – jinoyat ishida mulkiy manfaatlari himoya qilinadigan tarjimonning huquqiy maqomini, D.B. Bazarova, D.R. To'rayevalar – jabrlanuvchining mulkiy huquqlarini ta'minlash masalalarini, B.A. Saidov – jinoyat protsessidagi shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashni, S.N. Gordeyev – protsessual xarajatlarning bir turi bo'lgan shaxsni qidirishning huquqiy asoslarini, B.N. Rashidov – jinoyat protsessida dispozitiv huquqlardan foydalanish orqali protsessual xarajatlarni tejash masalalarini, N.N. Xayriyev – jinoyat ishlari yurituvini jadallashtirish asosida protsessual xarajatlarni tejash yo'llarini, shuningdek, muallifning falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasida ayrim xarajat turlari miqdorini hisoblash va to'lash mexanizmlari tadqiq etilgan.

Jinoyat ishlarini yuritish xarajatlari, ularni hisoblash va undirishga doir masalalar, shuningdek, jinoyatchilikning iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlari Amerikada Mark Cohen, David A. Anderson, Paul Heaton (AQSh), Christopher J. Koegl, David M. Day (Kanada); Yevropada Bea L. Raffan Gowar, David P., Farrington Maria, M. Ttofi, Matthew Heeks, Sasha Reed (Angliya), Christoffer Glaubitz, Frauke Steglich, Malte Koch, Henning Klodt, Thimna Klatt, Falk B. (Germaniya), Fredrik Kärrholm, Peter Neyroud, John Smaaland (Shvesariya); Osiyoda Tomoya Ohyama, Kazunori Hanyu, Masayuki Tani, Momoka Nakae Rida Marae (Yaponiya); Afrikada Rida Marae (Misr); Avstraliyada Paul D. House, Peter W. Neyroud (Avstraliya)lar tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlarida protsessual xarajatlarning turlari, tasniflanishi va undirish bo'yicha kompleks tadqiqotlar S.V. Bajanov, V.N. Demidov, K.N. Yemelyanov, N.A. Sidorova (Rossiya), N.A. Marsinkevich, N.A. Suxovenko, (Belorus), A.T. Karipova, B.K. Nurgazinov (Qozog'iston) tomonidan, jinoyat-protsessual xarajatlarning tushunchasi va vazifalarini o'rganish yuzasidan izlanishlar Y.F. Bepalov, V.V. Vandishev, V.N. Grigorev, O.Y. Kuznesova, K.B. Kalinovskiy, A.V. Pobedkin, I.A. Pikalov, V.T. Tomin (Rossiya), N.I. Polishchak (Ukraina), B. Boysenov, M.Ch. Kogamova, T.A. Xanov (Qozog'iston) tomonidan olib borilgan<sup>10</sup>.

Biroq Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sud-huquq sohasidagi islohotlarning natijalari, amaldagi qonunchilik va huquqni

---

<sup>10</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida keltirilgan.

qo'llash amaliyoti, xalqaro huquq normalari hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida xarajatlarni differentsiyalash yordamida odil sudlov samaradorligiga erishish maqsadida jinoyat-protsessual xarajatlarning nazariy va amaliy muammolari kompleks tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ichki ishlar organlari surishtiruv faoliyatida, shu jumladan, sudga qadar ish yuritishda odil sudlovni amalga oshirish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan yangi protsessual mexanizmlarni yaratish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoyat-protsessual qonunchilikdagi protsessual xarajatlarni to'lash, qoplash va undirishga oid yangi nazariy tartib-taomillar tizimini shakllantirish, shuningdek, ushbu masalani tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish orqali mazkur sohada mavjud huquqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

jinoyat-protsessual munosabatlarda protsessual xarajatlarning yuridik tabiatiga oid yangi ilmiy-nazariy qarashlar tizimini shakllantirish;

jinoyat-protsessual huquqda protsessual xarajatlar institutining rivojlanish tendensiyasini o'rganish;

jinoyat-protsessual qonunchilikda protsessual xarajatlar institutini tartibga solish va tasnifini shakllantirishga oid konseptual yondashuvlarni integratsiyalash;

protsessual huquqlar, majburiyatlar hamda vazifalarga oid xarajatlarni to'lash asoslari hamda amaliyotidagi nomuvofiqliklarni o'rganish hamda bartaraf etish bo'yicha ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalarni shakllantirish;

jinoyat ishini yuritishga mas'ul mansabdor shaxslarning protsessual vakolatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni tartibga solish va qoplash amaliyotidagi muammolarni aniqlash;

jinoyat ishi bo'yicha sarflangan protsessual xarajatlarni undirishning nazariy va amaliy masalalariga doir qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar hamda ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

protsessual xarajatlarga doir xorijiy tajribalar hamda tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va milliy qonunchilikka transformatsiya qilish yuzasidan tavsiyalar berish;

jinoyat ishini yuritish xarajatlarning tejamkorligini ta'minlash orqali samarali odil sudlovga erishishning konseptual yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** jinoyat ishlarini yuritish bilan bog'liq protsessual xarajatlar, ularni to'lash, qoplash va undirishga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlar.

**Tadqiqotning predmeti** jinoyat-protsessual xarajatlarga oid konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, institutni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, xalqaro standartlar va ayrim xorijiy davlatlarning qonunchiligidir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, huquqiy-statistik tahlil, sotsiologik so‘rov, kuzatish, matematik hisob usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

doimiy yashash hududidan tashqaridagi protsessual harakatlarga jalb etilgan ishga ko‘maklashuvchi shaxslar (guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislari) hamda jabrlanuvchilarning transport xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lmaganda, yo‘l xarajatlarini innovatsion usullar (<https://map.google.com>) sun‘iy yo‘ldosh elektron xaritasi) yordamida aniqlash tartibini qonun hujjatlariga kiritish zarurati asoslab berilgan;

jinoyat protsessida o‘z vazifasini bajargan tarjimonlarga tarjima turi va tiliga ko‘ra farqli (differensial) yondashuv asosida to‘lanadigan haq miqdorlarini ishlab chiqqan holda to‘lovni amalga oshirish zarurligi asoslantirilgan;

guvoh, jabrlanuvchi obyektiv sabablarga ko‘ra ishni sudga qadar yuritish yoki keyinchalik sud muhokamasida so‘roq qilishga imkon bo‘lmaganda, ularning ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo‘yish mumkinligini amaldagi qonunchilikda aks ettirish orqali yo‘l va turar joy bilan bog‘liq xarajatlarni (mehmonxona yoki turarjoy ijarasi) tejashga imkon berishi isbotlangan;

shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, shuningdek, muddatini uzaytirish bilan bog‘liq ishlarda himoyachi ishtirok etishi shart ekanligini alohida holat tariqasida qonunchilikka kiritish himoyalani huquqi bilan bog‘liq xarajatlarning protsessual asosini mustahkamlashi mumkinligi asoslab berilgan;

amaldagi qonunchilikka gumon qilinuvchi, ayblanuvchi e‘lon qilingan ayblovni, ish bo‘yicha mavjud dalillarni inkor etmaganligi holati aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzishning sharti sifatida belgilash ish yuritish xarajatlarini kamaytirishga imkon berishi asoslantirilgan;

doimiy ish haqiga ega bo‘lmagan jabrlanuvchi, guvoh, xolislariga ularni odatdagi mashg‘ulotidan qoldirganlik (chalg‘itganlik) uchun to‘lov miqdorini hisoblashning huquqiy mexanizmlarini qonunchilikka joriy etish zarurati asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot ishi doirasida shakllantirilgan normativ asoslar negizida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 570-son qarorining amalga kiritilishi jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislar jinoyat ishlari bo‘yicha ishtirok etishga jalb qilinganda, ularga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibini belgilashda foydalanilmoqda;

“protsessual xarajatlar”, “surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudga bajariladigan vazifalar”, “protsessual harakatlar o‘tkaziladigan joy”, “doimiy ish haqi olmaydigan shaxs”, “odatdagi mashg‘ulot”, “xizmat topshirig‘i tartibi”, “protsessual xarajetni undirish” tushunchalariga mualliflik ta‘riflari berilib, ularning mazmun-mohiyati,

shuningdek, protsessual xarajatlarning yuridik tabiati hamda jinoyat ishlari bo'yicha sarflanadigan byudjet mablag'larini tejash yo'llari ilmiy-nazariy asoslantirildi;

jinoyat-protsessual munosabatlardagi xarajatlarni to'lash va undirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi "Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qarorini jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

tashqi belgilariga ko'ra tanib olinuvchiga o'xshaydigan shaxslar, tergov eksperimentini o'tkazishda tajriba harakatlarini bajaradigan shaxslarni "protsessual statist" sifatidagi huquqiy maqomini jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilash hamda ularning mulkiy manfaatlarini protsessual xarajatlar instituti doirasida muhofaza qilish lozimligi asoslantirildi;

protsessual xarajatlarni undirish haqidagi ariza (xarajatlar amalga oshirilganligini asoslovchi hujjatlar ilova qilingan holda) bilan murojaat qilinganda, mas'ul organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan protsessual xarajatlarni to'lab berishda rasmiylashtiriladigan o'nga yaqin protsessual hujjatlarning (qaror, ajrim va boshq.) namunasi ishlab chiqildi;

shaxsning to'lovga moddiy imkoniyati bo'lmagan taqdirda, sudlar tomonidan protsessual xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazishga asos bo'ladigan holatlar aniqlashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari (reprezentativlik) xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ularni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribalar, sotsiologik (anketa so'rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan, dissertatsiyada 753 nafar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud, 76 nafar prokuratura va advokatura, 160 nafar ilmiy-pedagog xodimlar hamda 912 nafar fuqarolar o'rtasida o'tkazilgan so'rov tahlillari, shuningdek, 500 ta jinoyat ishi va 200 ta sud hukmi o'rganilib, natijalari umumlashtirilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 2022-yil 6-dekabrda "Jinoyat-protsessual munosabatlarda chiqimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, undagi ilmiy xulosa va tavsiyalardan jinoyat-protsessual qonunchiligining maqsad va vazifalarini ta'minlashning nazariy asoslarini rivojlantirish, protsessual xarajatlar institutining yuridik tavsifini boyitishda, shuningdek, "Jinoyat-protsessual huquq", "Tergov faoliyati", "Tezkor-qidiruv huquqi" fanlarini nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida: *birinchidan*, jinoyat protsessidagi shaxs va davlatning qonuniy

manfaatlarini ishonchli himoya qilishga erishiladi; *ikkinchidan*, jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat organlarining faoliyati samaradorligi ortadi; *uchinchidan*, isbot qilish ishtirokchilarining mulkiy huquqlarini kafolatlash orqali odil sudlovning sifati ta'minlanadi; *to'rtinchidan*, jinoyat ishlarini yuritishda davlat byudjetidan sarflanadigan mablag'lar hisobini yuritish va tejash mexanizmlari shakllanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jinoyat-protsessual munosabatlarda protsessual xarajatlarning nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

doimiy yashash hududidan tashqaridagi protsessual harakatlarga jalb etilgan ishga ko'maklashuvchi shaxslar hamda jabrlanuvchilarning transport xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lmaganda, yo'l xarajatlarini innovatsion usullar ((<https://map.google.com>) sun'iy yo'ldosh elektron xaritasi) yordamida aniqlash tartibini qonun hujjatlariga kiritishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 5-band ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-yanvardagi 09-09-03-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi transport xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmaganda ishga ko'maklashuvchi shaxs tomonidan bosib o'tilgan masofani aniqlashga xizmat qilgan;

jinoyat protsessida o'z vazifasini bajargan tarjimonlarga tarjima turi va tiliga ko'ra farqli (differensial) yondashuv asosida to'lanadigan haq miqdorlari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 1-ilovasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-yanvardagi 09-09-03-son ma'lumotnomasi). Mazkur tartib tarjimonlarga bajargan ishi yuzasidan to'lanadigan haq miqdorlarini tarjima turi va tili bo'yicha hisoblash mezonlarini belgilab bergan;

guvoh, jabrlanuvchi obyektiv sabablarga ko'ra ishni sudga qadar yuritish yoki keyinchalik sud muhokamasida so'roq qilishga imkon bo'lmaganda, ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish mumkinligini qonunda belgilash taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 675-son qonunining 2-moddasi 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 5-maydagi 06/1-11/5096-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi tegishli asoslar mavjud bo'lganda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish orqali yo'l va turar joyga doir protsessual xarajatlarni tejashga xizmat qilgan;

shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek, muddatini uzaytirishda himoyachi ishtirok etishi shart ekanligini alohida holat tariqasida qonunchilikda aks ettirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 675-son qonunining 2-moddasi 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 5-maydagi 06/1-11/5096-son ma'lumotnomasi). Mazkur tartib davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish xarajatlarini qonunda to'la aks ettirishga hamda himoyalani huquqi bilan ta'minlash samaradorligini oshirishga asos bo'lgan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi e'lon qilingan ayblovni, ish bo'yicha mavjud dalillarni inkor etmaganligini aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning sharti sifatida qonunchilikda mustahkamlash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 675-son qonunining 2-moddasi 30-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 5-maydagi 06/1-11/5096-son ma'lumotnomasi). Mazkur norma isbot qilishdagi qo'shimcha protsessual harakatlarni optimallashtirish hamda ish yuritish xarajatlarini tejashga yordam bergan;

doimiy ish haqiga ega bo'lmagan jabrlanuvchi, guvoh, xolislar ularni odatdagi mashg'ulotidan qoldirganlik (chalg'itganlik) uchun to'lov miqdorini hisoblash tartibini qonunchilikda belgilash zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislar to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-yanvardagi 09-09-03-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar, guvohlar va xolislar odatdagi mashg'ulotlardan chalg'itilganlik uchun amalda sarflangan vaqt va bajarilgan ishga muvofiq haq to'lashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta (shundan 5 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va o'n sakkizta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 243 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlariga bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Protsessual xarajatlarning yuridik tabiati, tartibga solinishi va tasniflanishi**" deb nomlanib, u to'rtta paragrafni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda protsessual xarajatlarning huquqiy tabiati va ahamiyati, rivojlanish tendensiyalari, tartibga solinishi va tasniflash mezonlari bilan bog'liq masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Dissertant jinoyat-protsessual munosabatlarga doir xarajatlarning maqsadi hamda shakliga ko'ra: 1) *ijtimoiy xarajatlar* (institutsonal xarajatlar); 2) *tashkiliy xarajatlar* (funktional xarajatlar, ya'ni jinoyat-protsessual faoliyatni ta'minlash xarajatlari); 3) *protsessual xarajatlarga* taqsimlab o'rganish lozimligini e'tirof etib, ishda asosiy e'tiborni protsessual xarajatlarga qaratgan. Protsessual xarajatlarning tushunchasi, tarkibiy tuzilishi va xususiyatlarini ochib berish maqsadida mahalliy olimlardan Z.F. Inog'omjonova, D.M. Mirazov, E.X. Norbutaev, M.A. Rajabova, B.N. Rashidov, A.X. Rahmonqulov va G.Z. To'laganovalarning, shuningdek, xorijiy tadqiqotchilardan S.V. Bajanov, B.T. Bezlepkin, S.F. Bichkova K.N.Yemelyanov, V.N. Grigoriev, A.T. Karipova, B.K. Kalinovskiy, M.Ch. Kogamova, O.Y. Kuznesov, N.A. Marsinkevich, K.A. Mami, I.A. Pikalov, N.I. Polishchak, A.V. Pobedkin V.I. Radchenko, I.I. Rogov, T.A. Xanov, V.V. Vandishev, V.N. Yashin va boshqalarning protsessual xarajatlarning yuridik tabiati bo'yicha ilmiy qarashlari tahlil etilib, ular bilan ilmiy bahsga kirishilgan hamda mazkur institutning shaxsning mulkiy manfaatlarini muhofaza qilishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijasida protsessual xarajatlar: a) tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud faoliyati uchun sarflanadigan xarajatlar; b) protsessga ko'maklashuvchi shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qiladigan xarajatlar; d) daliliy ashyolarni saqlash va tashish bilan bog'liq xarajatlardan iborat ekanligi haqidagi xulosaga kelinib, ishda ushbu elementlarning har biriga xos xususiyatlari hamda o'zaro uyg'un sifatlari yoritilgan.

Dissertatsiyada protsessual xarajatlarning jinoyat protsessidagi boshqa xarajatlardan farqlovchi belgilarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi e'tirof etilib, muallif ushbu belgilar sifatida: a) jinoyat ishlarini yuritish jarayonida yuzaga kelishi; b) protsessual huquqlar, majburiyatlar, vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liqligi; d) isbot qilish, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish va baholash uchun xizmat qilishi hamda ular alohida va o'zaro uyg'unlikda protsessual xarajatlarni tashkil etishi asoslab berilgan. Tadqiqotda tahlillarga tayanib, protsessual xarajatlar tushunchasi bo'yicha mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

Protsessual xarajatlar institutining ahamiyatini aniqlashtiruvchi jihatlar qatoriga: 1) odil sudlov uchun sharoit yaratishi; 2) protsess ishtirokchisining mulkiy manfaatini ta'minlashi; 3) zarur va malakali ishtirokchilarni jalb etish orqali ish yuritish sifatini oshirishi; 4) jinoyatlarning oldini olishning qo'shimcha vositasi bo'lib xizmat qilishi; 5) asossiz ariza va xabarlarni kamaytirishi; 6) sarflangan xarajatlar o'rnini qoplash va ish yuritish qiymatini aniqlashi; 7) himoya institutini takomillashtirishi kabi vazifalar kiritilgan.

Dissertant protsessual xarajatlar institutining fundamental asoslari, rivojlanish tendensiyalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, shakllanish bosqichlarini o'zbek davlatchiligining tadrijiy rivojlanish tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi davrlarga bo'lib o'rgangan:

*birinchi bosqich* – Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olinguniga qadar amalda bo'lgan “Avesto”ning Vendidot kitobi hamda “Shajarai turk” asaridagi sud-huquq masalalari;

*ikkinchi bosqich* – Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va shariat qonunlari amalda bo'lgan (VII asrdan XIX asrga qadar) Islom fiqhi – huquqshunosligi (“Hidoya”, “Maqtasar ul-Viqoya”, “Majma'ul-Maqsud” va Amir Temur bitiklari) asosida tartibga solingan sud-huquq tizimi;

*uchinchi bosqich* – milliy huquqqa roman-german huquq oilasi qoidalarining kirib kela boshlagan Chor Rossiyasi hukmronligi (1864-yil 20-noyabrda) Jinoyat ishlarini yuritish ustavi) va zamonaviy jinoyat-protsessual qonunchilikning shakllanish davri;

*to'rtinchi bosqich* – Sobiq ittifoq davridagi jinoyat-protsessual huquqida amal qilgan O'zSSRning Jinoyat-protsessual kodekslari (1926-yil 16-iyun, 1929-yil 1-avgust, 1959-yil 21-may) protsessual xarajatlar institutining normativ-institutsiyaviy jihatlari tahlil qilingan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda – JPK) asosida protsessual xarajatlar institutining tartibga solinishi alohida (*beshinchi*) bosqich tariqasida ajratib, tadqiq etilgan. Bunda huquq tizimi o'xshash bo'lgan MDH va Boltiqbo'yi davlatlarining JPKlarida protsessual xarajatlar institutini: a) boshqa qoidalar bo'limida joylashtirish; b) jinoyat ishlarini yuritishdagi mulkiy masalalar bo'limida joylashtirish; d) JPKning muhim bo'limlarida joylashtirish tajribalari, ularning ijobiy va salbiy jihatlari o'rganilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari: 1) huquqiy tartibga solish predmeti; 2) tarixiy rivojlanishi; 3) lingvistik uslubda kompleks tahlil qilish asosida protsessual xarajatlar institutini yangi tahrirdagi JPKda “Jinoyat ishlarini yuritishdagi mulkiy masalalar” nomli bo'limda joylashtirish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan protsessual xarajatlar yuridik va iqtisodiy mezonlar asosida tasniflashga harakat qilinib, bu borada S.V. Bajanov va L. Kruglikovlarning amalda sarflangan va boy berilgan; K.N. Yemelyanovning kompensatsiyaviy va benefitsiar; N.A. Sidorovanning isbotlashni amalga oshirish va protsessda ishtirok etish xarajatlari tarzidagi tasniflash mezonlari muhokama qilingan. Shuningdek,

protsessual xarajatlarning tasnifiga oid konseptual yondashuvlar bo'yicha N.A. Marsinkevich va P.V. Gridyushkolarning mezonlari kengaytirilib, protsessual xarajatlar *ishni yuritishga mas'ul bo'lgan organlar, ishga mas'ul bo'lmagan tashkilotlar, mahalliy hokimiyat organlariga tegishli xarajatlar* tasniflangan hamda "Protsessual statist"ning yangi ishtirokchi tariqasida qonunga kiritish taklif etilgan.

**"Jinoyat-protsessual huquqlar, majburiyatlar va vazifalarni ta'minlash xarajatlarining ilmiy-amaliy tahlili"** nomli ikkinchi bob mazmunan beshta paragrafga ajratilgan. Mazkur bobda isbot qilishda ishtirokchilarga doir xarajatlarning yuridik tavsifi, to'lash amaliyotida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinib, ularning yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan hamda protsessual xarajatlarni to'lash mexanizmi (algoritmi) bo'yicha modeli shakllantirilgan.

Dissertatsiyada dastlab JPKning 318-moddasi 1-bandidagi yo'lkira haqi, turar joy ijarasi hamda kundalik xarajatlarning xususiyatlari, hisoblash va to'lash tartibi ilmiy tahlil qilinib, ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etgan fuqarolarning 86 foizi – yo'lkira va turar joy xarajatlari; 82 foizi – kundalik ishdan qoldirganlik uchun, 71 foizi – tarjimon va mutaxassis sifatida ishtirok uchun haq undirish huquqi bo'yicha ma'lumotga ega emasligi va unga sabab bo'layotgan omillar tahlil qilingan. Aynan ushbu omillar va protsessual xarajatlarni to'lashdagi tashkiliy muammolar, ya'ni ularni to'lashga 1 oydan ortiq vaqt sarflanishi, qog'ozbozliklar protsessual xarajatlarni to'lash mexanizmining to'la ishlamasligining asosiy sabablari ekanligi e'tirof etilib, tashkiliy xarakterdagi ushbu muammolarni hal etish, shuningdek, Germaniya tajribasiga muvofiq protsess ishtirokchilariga yo'lkira xarajatlarini oldindan to'lab berish tartibini joriy etish zarurati asoslab berilgan.

Jinoyat protsessi ishtirokchisining ish joyida o'rtacha ish haqini saqlab qolish xarajatlari bo'yicha dastlab "*doimiy ish haqi olmaydigan shaxs*", "*odatdagi mashg'ulot*" so'zlarining mohiyati hamda lug'aviy ma'nosi hamda mazkur xarajatni hisoblash mexanizmlari tahlil qilingan. Doimiy ish haqi olmaydigan shaxslar toifasini aniqlash uchun birinchi navbatda o'zini o'zi band qilish faoliyatiga kiradigan 80 ta ish turi bilan shug'ullanayotganlarni inobatga olish lozimligi bayon etilgan.

Bundan tashqari, dissertatsiyada jinoyat protsessiga jalb etilgan ishtirokchining 1 oy uchun (2,5 mln so'm) ish joyida saqlab qolinadigan o'rtacha ish haqini hisoblash qoidasi misollar orqali tushuntirib berilgan. Shuningdek, jinoyat protsessida jamiyat manfaatlariga doir harakatlari uchun mehnat huquqlari kafolatlanadigan ishtirokchilar doirasini optimallashtirish, shuningdek, ushbu jarayonda xususiy mulkka asoslangan ish beruvchilarning manfaatlarini muhofaza qilish zarurligi asoslab berilgan.

Ish yuritishga jalb etilgan ekspertga, tarjimonga, mutaxassisga o'z protsessual vazifalarini bajarganligi uchun haq to'lash xarajatlariga oid nazariy va amaliy muammolarni tahlil qilish doirasida I.R. Astanov, R.S. Belkin, I.B. Jo'rayev, S.A. Sheyfer kabi tadqiqotchilarning qarashlari bilan ilmiy munozaraga kirishilib, protsessual vazifalarni jismoniy shaxs sifatida yoki xizmat topshirig'i tartibida bajarish xususiyatlari, shuningdek, ekspert, mutaxassis, tarjimon ajratish haqidagi topshirig'ini hal etish tartibi aniqlashtirib berilgan. Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2023-yilda ko'rilgan 58 814 ta jinoyat ishi bo'yicha

og‘zaki tarjima uchun 12 725 000 so‘m, yozma tarjima uchun bor yo‘g‘i 8 910 000 so‘m to‘lab berilgani, 53 foiz holatda esa ushbu xarajatlarni ishni yuritishga mas‘ul shaxslar qoplayotganligiga e‘tibor qaratilib, shu munosabat bilan protsessual xarajatlarni to‘lashning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligi qayd etilgan.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlovchi xarajatlar doirasida ishda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish tartibiga oid JPKning 50, 51, 52-moddalari va 318-moddasi 4-bandi tahlil qilingan. Ushbu masalaga oid ilmiy qarashlarni o‘rganish maqsadida D.G. Kamalova, A.Y. Koblyakova, Y.S. Pulatov, N.Y. Talantuli va G.Z. To‘laganovalarning ilmiy ishlanmalari tahlil qilingan. Shuningdek, 2022 – 2023-yillarda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun byudjetdan 55 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ sarflangan bo‘lsa-da, ayrim hollarda asoslovchi hujjatlarni rasmiylashtirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilayotgani, JPKdagi gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to‘lovdan ozod etish tartibidagi bo‘shliqlar buning sabablaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Bundan tashqari, ishda Konstitutsiyaning 29-moddasi asosida huquqbuzarlikdan jabrlanganlarning huquqlarini muhofaza qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish yo‘nalishlari, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan Y.A. Artamonova, D.B. Bazarova N.S. Manova hamda D.R. To‘rayevalarning nazariy qarashlarini muhokama qilish asosida, jinoyat oqibatida vafot etgan jabrlanuvchining yaqin qarindoshi bo‘lmagan taqdirda uning huquqi va qonuniy manfaatlarini davlat hisobidan tayinlangan advokat himoya qilishi zarur degan xulosaga kelingan.

Dissertantning fikricha, JPKda protsessual xarajatlar instituti deklarativ tarzda belgilangan. Ayniqsa, benefitsiar shakldagi xarajatlarni to‘lab berishning protsessual asoslari yetarlicha tartibga solinmagan. Tadqiqotchi mazkur xulosalarga yuridik yordam uchun himoyachiga haq to‘lashga doir qonunchilik hamda sud-tergov amaliyotidagi 60 ga yaqin qaror(ajrim)larni o‘rganish natijasida keladi. Ishda ta’kidlanishicha, JPKning biron normasida qanday holatda gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to‘lovdan ozod etish haqida qaror (ajrim) chiqarish mumkinligi ko‘rsatilgan emas. Shuningdek, himoyalanish huquqi hamda uni ta’minlash asoslarini qonunosti hujjatlarida ((O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2008-y., 137-son), Adliya hamda Moliya va iqtisodiyot vazirliklarining (2008-y., 8, 109-son) qarorlari)) tartibga solinishi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi (2021-y.) qonuni talablariga zid ekanligi bayon etilgan.

Bundan tashqari, xuddi shu asoslarga ko‘ra, ishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2023-y.) qarori ham huquqiy tartibga solish predmetiga ko‘ra, JPKning 318-moddasi 1-3-bandidagi benefitsiar xarajatlarni to‘lash haqidagi qaror(ajrim)lar uchun asos bo‘la olmasligi haqida xulosaga kelingan. Mazkur nuqtayi nazarni bugungi amaliyotda shakllangan holat,

ya'ni yo'lkira xarajatlari 65 foiz holatda amaliyotchilar tomonidan to'lanayotgani, 85 foiz ishni sudga qadar yuritish organi xodimlari maoshining 10-50 foizni jinoyat ishlari uchun sarflayotgani ham tasdiqlagan.

Mazkur bobda muhokama qilingan masalalarni hal etish hamda protsessual xarajatlarni to'lash asoslarini belgilovchi normalarni *qat'iylik va aniqlik prinsiplari* asosida ifodalash zarurati e'tirof etilib, xarajatlarni to'lashning protsessual asoslarini aniq belgilash maqsadida ishlab chiqilgan "Jinoyat ishini yuritishda sarflangan xarajatlarni to'lash" nomli yangi 39<sup>1</sup>-bobni JPKda mustahkamlash lozimligi asoslab berilgan.

Ishning uchinchi bobi "**Jinoyat-protsessual vakolatlarni amalga oshirishga doir xarajatlarning ilmiy-amaliy jihatlari**" deb nomlangan bo'lib, u o'z ichiga to'rtta paragrafni qamrab olgan. Mazkur bobda jinoyat ishini yuritishga mas'ul mansabdor shaxslar zimmasidagi protsessual vakolatlarni amalga oshirish xarajatlarini qoplashga oid normalar, ularni qo'llash xususiyatlari muhokama qilingan.

Tadqiqotda protsessual vakolatlarni amalga oshirish xarajatlarining yuridik tabiati va xususiyatlarini aniqlashtirish uchun I.V. Balovina, O.N. Ignatova, A.N. Kuznesov, A.V. Kulcharova, S.B. Xujaqulovlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, protsessual vakolatlar va protsessual harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik ochib berilgan hamda protsessual vakolatlar tushunchasi bo'yicha nazariy ta'rif ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, protsessual vakolatlarni amalga oshirishga oid xarajatlarning bir ko'rinishi bo'lgan ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni hisoblash amaliyoti hamda qonuniy tartibga solish masalalari muhokama qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, JPKning 318-moddasi 5-bandidagi tahrir faqat ashyoviy dalil deb e'tirof etish va jinoyat ishiga qo'shish haqida qaror chiqarilgan narsalarni saqlash va jo'natish xarajatlarini qamrab olsa-da, biroq ishni sudga qadar yuritish bosqichida yuqoridagi qaror chiqarilgunga qadar saqlangan va tashilgan narsalar bilan bog'liq xarajatlar ochiq qolmoqda. Shuningdek, tergov qilinadigan ishlarning qariyb 40 % bo'yicha isbotlashni amalga oshirishda ashyoviy dalillardan bevosita dalil sifatida foydalanish zarurati hamda ashyoviy dalillarni saqlashdagi nomuvofiqliklarni hal etish uchun yuqoridagi masalaga yechim topish zarurati ko'rsatib berilgan.

Ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summalar bilan bog'liq xarajatlar doirasida, ushbu xarajatlarni hisoblash mezonlari, nodavlat sud-ekspertiza muassasalarida o'tkaziladigan tekshiruvlar uchun to'lovni amalga oshirish asoslari muhokama qilingan. Dissertantning qayd etishicha, 2022-yilda tergov qilingan jinoyat ishlarining 70 foizida ekspertiza zarurati yuzaga kelgan. Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tadqiqotlari uchun murakkablik darajasi bo'yicha (408 000 – 12 036 000 so'mgacha) belgilangan haq miqdorlariga tayanib, jinoyat ishlari bo'yicha o'rtacha murakkablikdagi kamida 1 tadan ekspertiza o'tkazilganda, ekspertiza xarajatlari uchun bir yilda kamida 150 mlrd so'm sarflanishi taxmin qilingan. Ammo sarflangan

mablag'lar haqidagi ma'lumotlarni qayd etish tartibi hamda ushbu masalada sudga da'vo kiritish amaliyoti mavjud emasligi sababli ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan xarajatlarni undirish tartibi ishlamayotganligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, JPKda jinoyat ishi bo'yicha nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga tayinlanadigan ekspertiza tekshiruvlari uchun haq to'lash asoslari yetarli emasligi bois, ushbu masalalarni hal etish bo'yicha qator takliflar ilgari surilgan.

Dissertatsiyada protsessual vakolatlarni amalga oshirish xarajatlarining alohida turi sifatida shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, tergov yoki suddan yashiringan ayblanuvchi, sudlanuvchini qidirish uchun qilingan xarajatlarga alohida o'rin berilgan. Tadqiqotchi tomonidan tezkor-qidiruv huquqi doirasida qidiruv ishining huquqiy asoslari va tashkiliy masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan S.N. Gordeyev, N.V. Gryazyeva, T.R. Saitbayev, I.V. Smolkova, A.A. Xamdamov kabi olimlarning ilmiy-nazariy xulosalariga tayanib, shaxslarni ushlab, majburiy keltirish va qidirish xarajatlarini tashkil etadigan sarflanmalar va ularni hisoblashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqotda 2022-yilda qidiruv e'lon qilingan shaxslarning 88 foizi ushlangani, 2022 – 2023-yillarda qidiruvda bo'lgan jami 1092 nafar shaxsni (1 nafar shaxs uchun o'rtacha 35 mln) ekstraditsiya qilish uchun 38 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflangani aniqlangan. Shu munosabat bilan shaxslarni qidirishda o'tkaziladigan protsessual harakatlar, buning uchun sarflanadigan xarajatlar va ularni hisoblash mezonlarining keng muhokamasi asosida Belarus Respublikasining (1 nafar shaxsni qidirish xarajati BHMning 30 barobari qilib belgilangan) tajribasi asosida, alohida tadqiqot ishi doirasida shaxsni qidirish xarajatlari miqdorini belgilash tartibi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelingan. Shuningdek, Ukraina, Moldova, Latviya, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston kabi davlatlarning tajribalarini e'tiborga olib, davlat funksiyasini amalga oshirish shakli hisoblangan shaxslarni ushlab va majburiy keltirish xarajatlarini qonunchilikdan chiqarish zarur ekanligi asoslantirilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish hamda jinoyat ishlarini yuritishda qilingan boshqa xarajatlarning turlari muhokama qilinib, Uztelecom aloqa operatori ta'riflariga ko'ra bulutli texnologiyalar asosida videokonferensaloqa rejimi (VKS) xizmatining texnik talablariga amal qilish va foydalanish xarajatlarni hisoblash mezonlari tadqiq etilgan. Shu bilan birga, sud-tergov amaliyotining ehtiyojlari, B.T. Bezlepkin, K.B. Kalinovskiy, B.K. Nurgazinov, A.V. Smirnov singari olimlarning nazariy qarashlari hamda sud-tergov amaliyoti ehtiyojlariga ko'ra, ish yuritishda qilingan boshqa xarajatlar doirasiga aniqlik kiritilgan hamda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llagan holda JPKning 318-moddasi 8-bandini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi "**Jinoyat-protsessual xarajatlarni undirish. xarajatlarni tejashning konseptual asoslari**" deb nomlangan va undagi to'rtta paragraf doirasida jinoyat ishlarini yuritish uchun sarflangan xarajatlarni taqsimlash, undirishga doir normalar, bu boradagi xorijiy tajribalar hamda ish yuritish xarajatlarini iqtisod qilishning konseptual yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada jinoyat ishlarini yuritish uchun sarflangan xarajatlarni undirishning nazariy asoslarining tahlili asnosida M.A. Avdeyev, A.S. Danilyan, P.V. Gridyushko, L.I. Malaxova, N.A. Marsinkevichlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, JPKning 320-moddasining *huquqiy* hamda *moliyaviy funksiyalari*, undirish faoliyatida sud hukmining o'ri hamda "undirish" atamasining etimologik imkoniyatlari muhokama qilingan hamda ushbu normani nomlashda taqsimlash so'zidan foydalanish zarurligi asoslangan.

Ilmiy izlanishlar doirasida o'rganilgan (400 ta) ayblov xulosalari (dalolatnomasi)ning hech birida protsessual xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinmagani, natijada sudlar tomonidan protsessual xarajatlar haqidagi masala ochiq qoldirilayotganiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, bu borada faqat shaxsni ekstraditsiya qilish xarajatlarini undirish amaliyoti qisman ishlayotgani ta'kidlanib, qolaversa, ushbu masalada Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining Toshkent shahri hamda Sirdaryo viloyati boshqarmalari tomonidan 2022 – 2023-yillarda ijro harakatlari olib borilgan 35 ta ijro varaqasi bo'yicha umumiy qiymati 420 mln so'mlik shaxsni ekstraditsiya qilish xarajatlarini undirish bo'yicha ijro hujjatlari tahlil qilingan. Ma'lum bo'lishicha, ulardan 1 ta ish bo'yicha mahkumning zimmasidagi 32 374 310 so'mdan faqat 19 140 001 so'mlik xarajatlar davlat foydasiga undirilgani, qolgan qismi bo'yicha ijro harakatlari davom ettirilayotgani yoki qarzdor to'lov imkoniyati mavjud emasligi bois ijro hujjati tamomlangan.

Ishda JPKning 320-moddasidagi protsessual xarajatlarni undirish tartibiga oid har bir normaning nazariy jihatlari hamda amalda qo'llash xususiyatlari, shuningdek, ushbu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi qarori, huquqshunoslik fani doirasida shakllangan ilmiy xulosalar tahlil qilinib, protsessual xarajatlarni undirish tartibiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Tahlillar qonunchilikda protsessual xarajatlarni undirishga oid ayrim normalar matnidagi noaniqliklarni, to'lov majburiyatini ba'zi huquq subyektlariga yuklash asoslarining yetarli emasligini hamda ushbu tartibda fuqarolik huquqi prinsiplari to'la inobatga olinmaganini ko'rsatgan. Shu asosda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar bildirilgan hamda JPKning 320-moddasi yangi tahririning loyihasi taklif etilgan.

Protsessual xarajatlar institutini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdagi ilg'or xorijiy tajribalar sifatida AQShning Vanderbilt va Chikago, Angliyaning Kembridj, Germaniyaning Bayreut, Yaponiyaning Toxoku va Nixon universitetlari, Kembridj Kriminologiya markazi, shuningdek, ayrim MDH davlatlarida jinoyat ishlarini yuritish xarajatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Germaniyada voyaga yetmaganlarning qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatini tergov qilish uchun – 4 781-8002 yevro, o'g'rilik uchun 1 781 yevro, AQShda qotillik jinoyati uchun – 8 649 216 dollar, nomusga tegish uchun – 217 866 dollar, bosqinchilik uchun – 67 277 dollar, juda ko'p miqdordagi o'g'rilik uchun – 87 238 dollar sarflangan. Rivojlangan davlatlarda ushbu ma'lumotlardan protsessual xarajatlarni qoplash, jinoyatchilikka qarshi kurashish

yoʻnalishlarini aniqlash hamda politsiya shtat birliklarini belgilashda foydalanilishi, ushbu maqsadlarni koʻzda tutib mamlakatimizda ham jinoyat ishlari boʻyicha sarflanadigan mablagʻlarni hisoblash tizimini joriy etish zarurati asoslangan.

Dissertatsiyada jinoyat ishlarini yuritish xarajatlarini tejashning konseptual yoʻnalishlari tariqasida: 1) *jinoyat ishlarini yuritishni jadallashtiradigan institutlar*; 2) *jinoyat ishini yuritishni istisno etadigan yoki soddalashtiruvchi jinoiy-huquqiy mexanizmlar* keng muhokama qilingan. Bu borada: 1) xususiy ayblov jabrlanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan – Angliya; 2) jinoyat protsessining barcha bosqichlarida xususiy ayblov amal qiladigan – Fransiya; 3) jinoyat ishini tezkor sud majlisida koʻrib chiqish tartibiga oid – Yaponiya; 4) jinoyat ishini qoʻzgʻatishning maqsadga muvofiqligi qoidasi amal qiladigan Singapur; 5) jinoyat ishlarini protokol tartibida yuritish tartibiga oid – Qozogʻiston tajribalariga alohida eʼtibor qaratilgan. Shu bilan birga, yuqoridagi mexanizmlarni milliy qonunchilikka tatbiq etilishi jinoyat ishlari boʻyicha sarflanadigan mablagʻlardan unumli foydalangan holda sifatli odil sudlovga erishishga xizmat qilishi eʼtirof etilgan.

Dissertant huquqshunoslikdagi sifatli odil sudlovning qiymati yuqori turishi haqidagi tushunchalarga qisman qoʻshilgan holda jinoyat-protsessual munosabatlarga doir mablagʻlardan unumli foydalanish zarur deb hisoblaydi. Shuningdek, asosiy maqsadi jinoyat protsessining qiymatini, ish yuritish uchun qilingan barcha sarf-xarajatlar hajmini baholash, jinoyatchilikka qarshi kurashishga sarflanadigan mablagʻlar miqdori hamda jinoyat-protsessual qonunchilikning vazifalarini roʻyobga chiqarish oʻrtasidagi mutanosiblik darajasini aniqlash, shuningdek, protsessual xarajatlarni tejashga imkon beradigan institutlar va huquqiy mexanizmlarni rivojlantirishning muhim sharti boʻlgan “Oqilona xarajat – samarali odil sudlov” prinsipi asosida ilmiy faoliyat olib boradigan yangi ilmiy maktabni yaratish zarurligi haqidagi gʻoyalarni ilgari surgan.

## XULOSA

Jinoyat-protsessual munosabatlarda xarajatlarning nazariy va amaliy jihatlarini yaxlit ilmiy-nazariy tahlil etish natijalari quyidagi konseptual xulosalarga asos boʻldi:

### **I. Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasini rivojlantirish boʻyicha ilmiy xulosalar:**

1. Mavzu doirasida “protsessual xarajatlar”, “surishtiruv, dastlabki tergov yoki suda bajariladigan vazifalar”, “protsessual harakatlar oʻtkaziladigan joy”, “doimiy ish haqi olmaydigan shaxs”, “odatdagi mashgʻulot”, “tarjimon”, “xizmat topshirigʻi tartibi”, “protsessual xarajatni undirish” tushunchalariga quyidagicha mualliflik taʼriflari ishlab chiqildi:

*protsessual xarajatlar* – jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalariga muvofiq yuzaga kelib, ishga koʻmaklashuvchi shaxslar hamda jabrlanuvchilarning protsessual huquqlari, majburiyatlari va vazifalari (ekspert, mutaxassis, tarjimon) bilan bogʻliq mulkiy manfaatlarini, isbot qilishni amalga oshirishga masʼul shaxslarning protsessual vakolatlarini, shuningdek, davlat hisobidan yuridik yordam

ko'rsatish hamda isbotlash jarayonidagi boshqa sarflanmalarni moddiy kafolatlovchi mablag'lar;

*surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda bajariladigan vazifalar* – jinoyat ishi bo'yicha zarur bo'lgan maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan protsess ishtirokchisi (ekspert, mutaxassis, tarjimon) tomonidan haq evaziga ko'rsatiladigan xizmatlar;

*protsessual harakatlar o'tkaziladigan joy* – tegishli protsess ishtirokchisining doimiy yashash joylaridan tashqarida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan tergov yoki protsessual harakatlari amalga oshiriladigan makon;

*doimiy ish haqi olmaydigan shaxs* – o'n olti yoshdan to pensiya ta'minoti huquqini olish yoshiga qadar bo'lgan, ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasiga muvofiq haq to'lanadigan ish joyiga ega bo'lmagan mehnatga layoqatli shaxs;

*odatdagi mashg'ulot* – shaxs tomonidan har kuni, muntazam amalga oshiriladigan, takrorlanadigan yoki o'zini o'zi band qilishga qaratilgan harakat, ish turi;

*ekspertiza o'tkazuvchi boshqa tashkilot* – asosiy faoliyati sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, biroq xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega mutaxassisi bo'lgan davlat yoki nodavlat shakldagi yuridik shaxs;

*tarjimon* – jinoyat protsessi ishtirokchisi ish yuritilayotgan tilni bilmaganda yoki yetarli darajada bilmaganda yoki kar yoki soqov bo'lganda, shuningdek, biror matnni boshqa tildan tarjima qilish zarurati yuzaga kelganda jalb etiladigan muayyan til bo'yicha tegishli malaka (kvalifikatsiya)ga ega bo'lgan shaxs;

*xizmat topshirig'i* – ish beruvchi tashkilot rahbari yoki tegishli vakolat berilgan shaxsning yozma shakldagi (buyruq, qaror, farmoyish) yoki ustxati (rezolyutsiyasi, sporishi) asosida xodimni o'z mehnat majburiyati doirasidagi vazifasini doimiy ish joyida yoxud undan tashqarida (xizmat safariga chiqib) bajarishi haqidagi ko'rsatmasi;

*protsessual xarajatlarni undirish* – sudning jinoyat ishi bo'yicha sarflangan protsessual xarajatlarni (qoplash majburiyatini) protsess ishtirokchisi zimmasiga yuklash yoki davlat hisobiga o'tkazishdan iborat taqsimlash hamda ijro organlarining protsess ishtirokchisiga pul mablag'lari va boshqa mol-mulknini davlat foydasiga berish majburiyatini yuklash faoliyati bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy choralar yig'indisi.

2. Jinoyat-protsessual munosabatlardagi xarajatlar maqsadi va shakliga ko'ra: 1) *ijtimoiy xarajatlar (institutSIONAL xarajatlar)*; 2) *tashkiliy xarajatlar (funktSIONAL xarajatlar, ya'ni jinoyat-protsessual faoliyatni ta'minlash xarajatlari)*; 3) *protsessual xarajatlardan tashkil topganligi aniqlashtirildi.*

3. Protsessual xarajatlarning tarkibi, ishni yuritish xarajatlari tizimida tutgan o'rnini hamda boshqa xarajatlardan farqlovchi belgilari, ya'ni: a) *jinoyat ishlarini yuritish jarayonida yuzaga kelishi*; b) *protsessual huquqlar, majburiyatlar, vazifalar amalga oshirish bilan bog'liqligi*; d) *isbot qilish, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish va baholash uchun xizmat qilishi* farqlanib, uning tarmoqlararo huquq instituti ekanligi isbotlandi.

4. JPKda davlat ekspertiza muassasalaridan tashqarida, xususan, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari hamda jismoniy shaxslar tomonidan o'tkaziladigan ekspertizalar uchun oldindan haq to'lash, shuningdek, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarda ekspertiza o'tkazish uchun qilingan xarajatlarni undirish asoslari yetarli emasligi hamda ularni qonunda mustahkamlash zarurdir.

5. O'zbekistonda amalda bo'lgan *jinoyat protsessining uch tarmoqli moduli*, ya'ni tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini tergov qilish hamda sud (sud tergov) muhokamasidan iborat, ayrim protsessual harakatlarni mazmunan takrorlanishiga va protsessual xarajatlar hajmining ortishiga sabab bo'ladigan bosqichlarning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish asosida jinoyat protsessining tejamkor va samarali yangi milliy modelini shakllantirish g'oyasi ilgari surilgan.

6. Asosiy maqsadi jinoyat protsessining qiymatini, ish yuritish uchun qilingan barcha sarf-xarajatlar hajmini baholash, jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun sarflanadigan mablag'lar miqdori hamda jinoyat-protsessual qonunchilikning vazifalarini ro'yobga chiqarish o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash, shuningdek, protsessual xarajatlarni tejashga imkon beradigan institutlar va huquqiy mexanizmlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan "Oqilona xarajat – samarali odil sudlov" tamoyili asosida ilmiy faoliyat olib boradigan yangi ilmiy maktabni yaratish zarurati asoslab berilgan.

7. "Oqilona xarajat – samarali odil sudlov" prinsipiga asoslangan ilmiy maktabda amalga oshiriladigan jami 15 ta nomdagi falsafa doktorligi (PhD) hamda fan doktorligi (DSc) bo'yicha *dissertatsiya ishlarining mavzulari* loyihalari tavsiya etilgan.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish taklif etiladi:

1) 55-moddaning beshinchi qismini "o'shiradilar" degan so'zdan keyin "*Vafot etgan jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari bo'lmagan taqdirda, uning huquqi va qonuniy manfaatlari ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan vakil sifatida tayinlangan advokat tomonidan himoya qilinadi. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to'lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan amalga oshiriladi*" degan so'zlar bilan to'ldirish;

2) 6-bobni quyidagi mazmundagi 74<sup>1</sup> va 74<sup>2</sup>-moddalar bilan to'ldirish:

### **"74<sup>1</sup>-modda. Protsessual statistlar**

*Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazishda tashqi belgilariga ko'ra tanib olinuvchiga o'xshash bo'lgan, ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan shaxslar protsessual statist sifatida jalb etilishi mumkin.*

*Protsessual statist, shuningdek, tergov zaruratidan kelib chiqib, tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlarni tiklash yoki tergov eksperimentni o'tkazishda tajriba harakatlarini olib boruvchi shaxslar tariqasida ham chaqirilishi mumkin.*

*Tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror*

*protsessual statistlarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.*

#### **74<sup>2</sup>-modda. Protsessual statistning huquq va majburiyatlari**

*Protsessual statist: tergov harakatida ishtirok etish; tergov harakati bo'yicha bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arz va mulohazalar berish; o'zi ishtirok etgan tergov harakatining bayonnomasi bilan tanishish; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga egadir.*

*Protsessual statist: surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; tergov harakatini yuritishda ishtirok etishi; tergov harakati o'tkazilgani, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor qilmasligi shart.*

*Protsessual statist o'zi ishtirok etgan tergov harakatini yuritish bilan bog'liq holatlar bo'yicha guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin. U bunday hollarda ushbu Kodeksning 66-moddasida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi".*

3) 75-moddani chiqarib tashlash.

4) 97-modda ikkinchi qismini "kerakligi" degan so'zlardan keyin "yo'lkira va turar joy xarajatlari to'lab berilishi" degan so'zlar bilan to'ldirish.

5) quyidagi mazmundagi **39<sup>1</sup>-bob** bilan to'ldirish:

#### **"39<sup>1</sup>-bob. JINOYAT ISHINI YURITISHDA SARFLANGAN XARAJATLARNI TO'LASH**

##### **317<sup>1</sup>-modda. Yuridik yordam uchun haq to'lash**

*Himoyachi tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam uchun haq tomonlar o'rtasida tuzilgan bitim (shartnoma) asosida ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) hisobidan to'lanadi yoki davlat hisobidan bepul huquqiy yordam ko'rsatiladi.*

*Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi holatlarda:*

1) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi yuridik yordam uchun to'lov qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganda;

2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyachidan voz kechishini rasmiylashtirishda advokatning ishtiroki ta'minlanganda;

3) ushbu Kodeksning 52-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq jinoyat ishida himoyachining qatnashishi majburiy deb hisoblanganda surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga muvofiq yuridik yordam uchun to'lovdan ozod etilishi mumkin.

*Jinoyat natijasida vafot etgan jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari bo'lmagan hollarda marhumning ushbu Kodeksning 55-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirish uchun surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga muvofiq vakil sifatida davlat hisobidan advokat jalb etiladi.*

*Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda yuridik yordam uchun haq, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida O'zbekiston Respublikasi*

Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va miqdorda G'aznachilik xizmati qo'mitasining hududiy bo'linmalari tomonidan to'lanadi.

### **317<sup>2</sup>-modda Ekspert, mutaxassis, tarjimonga haq to'lash**

Ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislarga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun quyidagicha haq to'lanadi:

ish joyidan ish haqi tariqasida – ish xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan bo'lsa;

Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda – ish ularning xizmat vazifalariga kiritilmagan bo'lsa va ish vaqtidan tashqari bajarilgan bo'lsa;

o'zaro kelishuvga muvofiq – ish tomonlar o'rtasida, shu jumladan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan bitim (shartnoma)lar asosida bajarilgan bo'lsa.

Ushbu moddaning birinchi qismi ikkinchi va uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollarda bajarilgan ish uchun haq to'lash surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida davlat byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadi.

### **317<sup>3</sup>-modda Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xarajatlarini qoplash**

Jinoyat protsessida ishtirok etgan jabrlanuvchilar va ularning vakillari, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislari, tarjimonlar, xolislar protsessual statistlarning quyidagi xarajatlari qoplanadi:

1) jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat organining chaqiruviga ko'ra protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib ketish uchun sarflangan:

umumiy foydalaniladigan transportning barcha turlaridan (taksidan tashqari) foydalanish bo'yicha yo'l xarajatlari;

turar joy bilan bog'liq xarajatlari, yashash joyiga har kuni qaytish imkoniyati mavjud bo'lgan hollar bundan mustasno;

2) sutkalik xarajat puli, agar, shaxs doimiy turar joyidan tashqarida yashashlariga to'g'ri kelsa;

3) doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, xolislariga, protsessual statistlarga, ularni odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lovlar.

Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalari jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning **qonuniy** vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, protsessual statist, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi tariqasida surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga chaqiriladigan shaxslarning protsessual harakatlarda ishtirok etish maqsadida sarflangan to'liq vaqt uchun ularning ish joyida o'rtacha ish haqini saqlab qolinishi shart.

Jinoyat protsessi davomida qilingan xarajatlar ushbu moddaning birinchi qismida sanab o'tilgan shaxslarning arizasiga binoan, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida G'aznachilik xizmati qo'mitasining hududiy bo'linmalari tomonidan to'lanadi. Ushbu

*xarajatlarni to'lash tartibi va miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.*

*Ushbu modda birinchi qismining 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan xarajatlar jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organining tashabbusi bilan (avans tariqasida) oldindan to'lab berilishi mumkin*";

6) 318-moddaning:

1 va 2-bandlarini "xolislariga" degan so'zlardan keyin "protsessual statistlarga" degan so'zlar bilan to'ldirish;

quyidagi mazmundagi 4<sup>1</sup>-band bilan to'ldirish:

*"ushbu Kodeksning 55-moddasiga muvofiq, jinoyat natijasida vafot etgan jabrlanuvchining vakili sifatida ishtirok etgan advokatga to'lanadigan haqdan*";

5-bandidagi "ashyoviy dalillarni" degan so'zlarni "narsa va hujjatlarni" degan so'zlar bilan almashtirish;

6-bandidagi "ekspertiza muassasalarida" degan so'zlarni "davlat ekspertiza muassasalari, boshqa tashkilotlar yoki yuridik shaxslar tomonidan" degan so'zlar bilan almashtirish;

7-bandidagi "shaxslarni ushlab, majburiy keltirish va" degan so'zlarni "tergov va suddan yashiringan ayblanuvchi, sudlanuvchini" degan so'zlar bilan almashtirish;

8-bandidagi "qilingan" degan so'zlarni "isbot qilish uchun sarflangan" degan so'zlar bilan almashtirish;

ikkinchi xatboshisini chiqarib tashlash.

7) 319-moddani chiqarib tashlash.

8) 320-moddaning matnini quyidagi tahrirda bayon etish:

### **320-modda. Protsessual xarajatlarni taqsimlash**

Protsessual xarajatlar, ushbu moddaning *sakkizinchi qismida* nazarda tutilganidan tashqari hollarda, mahkumlardan undiriladi yoki davlat hisobiga o'tkaziladi.

Sud protsessual chiqimlarni, tarjimonga va *himoyachiga* to'langan summadan tashqari, mahkumdan undirishga haqli. Protsessual chiqimlar jazodan ozod qilingan mahkum, shuningdek jazo tayinlanmagan mahkum zimmasiga yuklatilishi mumkin.

*Jinoyat ishida tarjimonning ishtiroki bilan bog'liq protsessual xarajatlar davlat byudjetdan qoplanadi. Agar tarjimon o'z vazifalarini xizmat topshirig'i tartibida bajargan bo'lsa, unda uning xizmati uchun to'lov tarjimon ishlayotgan tashkilot tomonidan qoplanadi.*

Sud bir necha sudlanuvchini aybli deb topgan taqdirda, ularning har biridan qancha miqdorda protsessual chiqimlarni undirish lozimligini belgilaydi. Bu holda sud *jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, tayinlangan jazoning og'irligini* inobatga oladi. *Tarjimon va advokat ishtiroki bilan bog'liq, shuningdek, ayblanuvchini qidirish, shuningdek gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlar bundan mustasno.*

Sudlanuvchi oqlangan yoki ushbu Kodeksning 83-moddasiga muvofiq ish tugatilgan taqdirda protsessual chiqimlar davlat hisobiga o'tkaziladi. Sudlanuvchi bir ayblov bo'yicha oqlangan, boshqa ayblov bo'yicha esa aybli deb topilgan bo'lsa, sud u aybli deb topilgan ayblov bilan bog'liq protsessual chiqimlarni to'lashni uning zimmasiga yuklaydi.

Protsessual chiqimlar undirilishi lozim bo'lgan shaxsning to'lovga moddiy imkoniyati bo'lmagan taqdirda chiqimlar davlat hisobiga o'tkaziladi. Mahkumning protsessual chiqimni to'lashi uning qaramog'ida bo'lganlarning moddiy ahvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sud mahkumni protsessual chiqimlarning hammasini yoxud bir qismini to'lashdan ozod etishga haqli.

Sud voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar yuzasidan protsessual chiqimlarni to'lashni voyaga yetmaganning xulq-atvori ustidan tegishli nazorat yo'qligida aybi bo'lgan taqdirda voyaga yetmagan mahkumning *davlat organi yoki tashkiloti hisoblanmagan qonuniy vakillariga* yuklashi mumkin.

*Mahkum vafot etgan taqdirda, uning merosxo'rlari protsessual xarajatlarni to'lash majburiyati uchun javobgar bo'lmaydi.*

*Protsessual xarajatlarni undirish huquqi tegishli sud qarori kuchga kirgan kundan boshlab uch yildan keyin da'vo muddati o'tishi munosabati bilan bekor qilinadi*".

2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi (2023-yil 16-iyun) qonunining 3-moddasi 1-bandidan "*to'liq yoki qisman*" degan so'zlarni chiqarib tashlash.

3. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi (2010-yil 1-iyun) qonuniga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish taklif etiladi:

1) 3-moddasini quyidagi mazmundagi yettinchi band bilan to'ldirish:

*"Bunda boshqa tashkilot deganda asosiy faoliyati sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, biroq xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassisga ega bo'lgan davlat yoki nodavlat yuridik shaxs tushuniladi";*

2) 23-moddasi ikkinchi qismini quyidagi mazmunda tahrir qilish:

*"Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan mablag'lar sud eksperti tomonidan qonunchilikka muvofiq hisoblanishi va xulosaga ilova qilinishi mumkin. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonunchilikda belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs)ning talabiga binoan ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi"*.

**III. Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual xarajatlarni to'lash, qoplash va undirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar:**

1. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya jabrlanuvchilar va jinoyat ishiga ko'maklashuvchi shaxslar (guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislar)ga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi

570-son qarori bilan tasdiqlangan “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq quyidagi xarajatlari to‘lanishi haqida ma’lumot berishi lozim:

a) protsessual harakatlarni o‘tkazish joyiga kelib-ketishda sarflangan yo‘lkira xarajatlari;

turar joy bilan bog‘liq xarajatlari (mehmonxona yoki turar joy ijarasi);

kundalik xarajatlari;

b) jinoyat protsessida o‘z vazifalarini bajarganligi uchun haq;

d) doimiy ish haqi olmaydigan ishtirokchilarni odatdagi mashg‘ulotidan qoldirilganlik (chalg‘itganlik) uchun haq.

Shuningdek, protsess ishtirokchilari yuqoridagi Nizomning 2-ilovasida keltirilgan ariza namunasi bilan tanishtirilishi hamda protsessual xarajatlarni to‘lash choralari ko‘rilishi shart.

2. Protsessual xarajatlar institutiga oid tashkiliy jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida quyidagi mavzularda *grant loyihalari* amalga oshirilishi lozim:

1) “*Adolat xarajatlari*” milliy elektron platformasini *uшлаб чиқууи*” nomli amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasi (JPKning 318-moddasi 1-4-bandlaridagi xarajatlarni to‘lash jarayonida ish yuritishga mas’ul organlar hamda moliya tashkilotlari o‘rtasida tezkor hujjat almashish, to‘lovning qo‘shimcha manbani shakllantirish, mablag‘larni taqsimlash va boshq.);

2) “*Jinoyatchilik xarajatlari*” kompleks elektron dasturini *uшлаб чиқууи*” nomli amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasi (jinoyat ishi uchun sarflanadigan barcha resurslar, jumladan vaqt va mehnat birligi, energiya manbalari, kanselyariya mahsulotlari, bino va inshootlar, texnik vositalar sarfi va boshqalar hisoblanadi).

Bulardan tashqari:

3) Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyalaniish huquqini ta’minlash xarajatlarini hisoblash tizimini takomillashtirish maqsadida davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishga oid ma’lumotlarni “*blokcheyn*” texnologiyalari vositasida qayd etish va umumlashtirish tartibini joriy etish tavsiya etiladi.

4) Jinoyat ishi bo‘yicha narsa va buyumlarni saqlash xarajatlarini hisoblash tizimini shakllantirish maqsadida IIV Tergov departamentining barcha tergov bo‘linmalaridagi ashyoviy dalillarni saqlash xonalarining jihozlanishi, ulardan foydalanish holatini o‘rganish, shuningdek saqlash ma’lumotlarini qayd etishning qog‘oz shakli (ashyoviy dalillarni qayd etish jurnali) o‘rniga elektron ro‘yxatga olish (QR-kod (*Quick Response Code*)dan foydalanish) tizimini joriy etish lozim.

Bunda ro‘yxatga olish tizimini:

jinoyat ishlari bo‘yicha olingan, biroq ashyoviy dalil sifatida e’tirof etilmagan;

narsani ashyoviy dalil deb e’tirof etish va jinoyat ishiga qo‘shib qo‘yish qarori chiqarilgan narsalar bo‘yicha alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

3. Surishtiruv organining ayblov dalolatnomasi (JPK 381<sup>12</sup>-modda) hamda dastlabki tergov organining ayblov xulosasiga (JPK 380-modda) protsessual xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinishi shart.

4. Jinoyat ishini yuritish xarajatlarini tejash, shuningdek, byudjet mablag'larini maqsadli ishlatilishiga erishish uchun:

qonuniy asoslar mavjud bo'lganida jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atish, yarashuv, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutlari imkoniyatlaridan keng foydalanish;

ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish, shuningdek, tergov harakatlarida videokonferensaloqa rejimini ko'proq qo'llash;

ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarni protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga yaqin hududda istiqomat qiladigan shaxslar orasidan, davlat muassasalarida faoliyat olib borayotgan yuqori malakali mutaxassislar orasidan xizmat topshirig'i tartibida jalb etish choralarini ko'rish;

qo'shimcha so'roq asoslarini vujudga kelishini oldini olish uchun dastlabki so'roqqa puxta tayyorgarlik ko'rish hamda tergov harakatini sifatli rasmiylashtirish;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini tergov va suddan yashirinishi hamda xorijiy davlatlar hududiga chiqib ketishini oldini olishga yo'naltirilgan protsessual harakatlarni o'z vaqtida ko'rish lozim.

5. Prokuratura organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida:

protsessual xarajatlarni to'lash tartibiga oid qonun hujjatlarni aniq va bir xilda bajarishi;

JPKning 318-moddasi 5-8-bandlarida nazarda tutilgan protsessual xarajatlarni undirish bo'yicha da'vo arizalarini kiritishi;

sudlar tomonidan protsessual xarajatlarni to'lash majburiyatining taqsimlash hamda undirish jarayoni bo'yicha tizimli prokurorlik nazoratining o'rnatilishi jinoyat-protsessual qonunchilikning shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

6. Sudlar protsessual xarajatlarning hammasini yoxud bir qismini to'lashdan ozod etish masalasini hal etishda to'lovni amalga oshirish shaxsning qaramog'ida bo'lganlarning moddiy ahvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar sifatida qoida tariqasida mahkumning oilasida:

– I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

– tibbiy yordamga muhtoj (surunkali yoki og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan) shaxslar;

– ko'p sonli (4 va undan ortiq) farzandlari;

– ta'lim muassasalarida kontrakt asosida o'qiydigan shaxslar;

– voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz shaxslarning mavjudligi, shuningdek, mahkum, aliment, kredit to'lovi majburiyatlarini bajarayotganligi;

– bolasini yolg'iz tarbiyalayotgan yolg'iz ona (otalar) yoxud nikohi bekor qilingan ayol ekanligi;

– o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joyi bo'lmaganligi;

– fuqaroligi bo‘lmagan hamda mamlakat hududida doimiy daromadga ega bo‘lmaganligi kabi holatlarni inobat olishi to‘g‘ri bo‘ladi.

7. Adliya organlari tomonidan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” (2019-yil 9-yanvar, PF-5618) doirasida fuqarolar o‘rtasida jinoyat ishlari protsessual xarajatlarni undirish huquqiga oid qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish yuzasidan targ‘ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

8. Davlat ekspertiza muassasalari tomonidan tegishli ekspertiza xulosalariga ekspertiza o‘tkazish uchun sarflangan xarajatlar haqidagi ma‘lumotlarning ilova qilinishi jinoyat protsessida davlat manfaatlarini ta‘minlanishga yordam beradi.

9. Shaxslarni qidirishda amalga oshiriladigan protsessual harakatlar, shu jumladan, o‘tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari, buning uchun sarflanadigan xarajatlar va ularni hisoblash mezonlarini keng muhokama qilgan holda Belarus Respublikasining (1 nafar shaxsni qidirish xarajati BHMning 30 barobari qilib belgilangan) tajribasi asosida alohida tadqiqot ishi doirasida shaxsni qidirish xarajatlari miqdorini belgilash tartibini ishlab chiqish lozim.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi “Jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi 13-son qaroriga quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

1) 5-bandi birinchi qismidagi *“yarashuv to‘g‘risidagi ariza, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga yuborilganda protsessual chiqimlar turi va miqdoriga doir ma‘lumotnomani qarorga ilova qilish”* haqidagi qoidani chiqarib tashlash;

2) 7-bandi ikkinchi qismini (*protsessual chiqimlar, shuningdek, yarashuv amnistiya akti yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi munosabati bilan jinoyat ishi tugatilgan shaxslar zimmasiga ham yuklanishi mumkin*) chiqarib tashlash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА  
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

---

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**СУЛТОНОВ АБДУЛЛА АЗАМАТОВИЧ**

**ИЗДЕРЖКИ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика,  
оперативно-розыскное право и судебная экспертиза

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора юридических наук (DSc)**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2021.2. DSc/Yu170.**

Диссертационная работа выполнена в Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета Академии (<https://akadmvd.uz>) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (<http://library.ziyonet.uz/uz>).

**Научный руководитель:**

**Мухитдинов Фахриддин Мухитдинович**  
доктор юридических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Миразов Даврон Мирагзамович**  
доктор юридических наук, профессор

**Муродов Бахтиёржон Баходирович**  
доктор юридических наук, профессор

**Гордеев Сергей Николаевич**  
доктор юридических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный  
юридический университет**

Защита диссертации состоится 8 июля 2024 года в 11:00 часов на заседании Научного совета DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 по присуждению ученых степеней при Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан. (Адрес: 100197, г.Ташкент, улица Интизор, 68. Тел./факс: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (зарегистрировано за № АД 1438). Адрес: 100097, г.Ташкент, улица Интизор, 68. Тел.: (+99871) 265-22-52.

Автореферат диссертации разослан 26 июня 2024 года.

(протокол реестр рассылки за № 4 от 25 июня 2024 года).



**А.С. Турсунов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор юридических наук, профессор

**А.Д. Хусанов**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор философии по юридическим  
наукам, доцент

**Б.А. Ражабов**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор юридических  
наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В странах мира быстрое и полное раскрытие преступлений, повышение качества правосудия, обеспечивающего охрану личности, ее прав и свобод, интересов общества и государства, собственности, безопасности человечества от преступных посягательств, рассматривается в качестве объективной необходимости. Причина в том, что значение данной отрасли в обеспечении благосостояния народа, устойчивом развитии общества и прогрессе страны неопределимо. В силу этих факторов борьба с преступностью и расходы на судебную систему занимают значительную долю в государственном бюджете. В 2023 году США потратили на суды 8,6 млрд<sup>11</sup>, на полицию – 37,65 млрд<sup>12</sup> долларов, занимая 29-е место в рейтинге Всемирного проекта правосудия (World Justice Project)<sup>13</sup>. В данном рейтинге по доле расходов на полицию относительно ВВП 36-е место занимает Коста-Рика (2,5 процент), Чили (1,9 процент) – 48-е место<sup>14</sup>. В международном индексе преступности США разместились на 58-й, Коста-Рика – на 43-й, Чили – на 32-й позициях<sup>15</sup>. Обеспечение пропорциональности между затратами, направленными на стабилизацию данного правопорядка и эффективностью правосудия требует разработки инновационных подходов к расчету социальных и экономических издержек преступности.

В развитых странах мира, а также в авторитетных исследовательских центрах (Center of the Mind)<sup>16</sup> борьба с преступностью, в том числе оптимизация расходов на правосудие, является актуальным объектом научных исследований. В этом отношении особое значение приобретают исследования, направленные на определение стоимости уголовного делопроизводства, изучение прямых и косвенных затрат на преступность, расчет затрат на судопроизводство по отдельным видам преступлений, разработку более эффективных механизмов защиты интересов личности, государства и общества в уголовном процессе при рациональном расходовании государственных средств, а также на поиск научно обоснованных решений проблем определения приоритетных направлений правового регулирования данных отношений.

В рамках направления «Реформы по обеспечению верховенства закона и в судебно-правовой системе» стратегии «Узбекистан – 2030»<sup>17</sup>, в соответствии с благородной идеей «Во имя достоинства человека», последовательно реализуется политика обеспечения надежной защиты прав и свобод человека в уголовном процессе. В частности, принятие Постановления Кабинета Министров «Об утверждении положения о порядке исчисления и уплаты средств, подлежащих выплате потерпевшим, свидетелям, экспертам,

<sup>1</sup> <https://www.uscourts.gov/sites/default/files/FY%202023%20Congressional%20Budget%20Summary.pdf>.

<sup>2</sup> <https://www.policegrantshelp.com/news/2023-doj-budget-highlights-enforcement-and-safety-prioritiespoyzBoJ8Cch9WXu2>.

<sup>3</sup> <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2023/Criminal%20Justice>.

<sup>4</sup> [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp).

<sup>5</sup> [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp).

<sup>6</sup> <https://www.rand.org/well-being/justice-policy/centers/quality-policing/cost-of-crime.html>; <https://ocindex.net/>; <https://northcac.org/>; <https://www.crim.cam.ac.uk/research/thecambridgecrimeharminindex>.

<sup>7</sup> Указ Президента Республики Узбекистан О Стратегии «УЗБЕКИСТАН – 2030» от 11 сентября 2023 года №УП-158 // - URL:<https://lex.uz/ru/docs/6600413#6605156>.

специалистам, переводчикам и понятым» (2023), а также расходование 55 млрд. сумов на оказание юридической помощи за счет государства в 2022-2023 годах<sup>18</sup> полностью обосновывают вышеизложенные суждения.

Кроме того, закрепленный в новой редакции Конституции принцип «Человек-общество-государство» требует дальнейшего расширения гарантий прав и свобод человека, совершенствования института процессуальных издержек, защищающего имущественные права и интересы в уголовном процессе. Ведь недостаточная сформированность механизма возмещения процессуальных издержек, в результате чего он фактически не функционирует в полной мере, пробелы в процессуальных основах оплаты издержек и неясности в порядке взыскания средств, израсходованных из государственного бюджета, а также цели достижения качественного правосудия при экономии затрат в соответствии с приоритетным направлением «Разумные затраты – качественное правосудие» свидетельствуют об актуальности исследования теоретических и практических аспектов издержек в уголовно-процессуальных отношениях.

Данная диссертационная работа в некоторой степени послужит выполнению приоритетных задач, определенных в новой редакции Конституции Республики Узбекистан (2023), Законе «Об оказании юридической помощи за счет государства» (2023), Постановлении Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию судебно-экспертной деятельности» (2019), Указе «О мерах по дальнейшему усилению гарантий защиты прав и свобод личности в судебно-следственной деятельности» (2020), Постановлении «О мерах по дальнейшему совершенствованию экспертно-криминалистической деятельности органов внутренних дел с широким внедрением достижений современной науки» (2022), Указе «О дополнительных мерах по дальнейшему расширению возможностей доступа к правосудию и повышению эффективности деятельности судов» (2023), Постановлении Кабинета Министров «Об утверждении положений по организации деятельности негосударственных судебно-экспертных организаций» (2020), «Об утверждении положения о порядке исчисления и уплаты средств, подлежащих выплате потерпевшим, свидетелям, экспертам, специалистам, переводчикам и понятым» (2023) и других законодательных актах в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>19</sup>.** Научные (фундаментальные) исследования по совершенствованию правовых, организационно-практических механизмов регулирования издержек в уголовно-

---

<sup>8</sup> Письмо Палаты адвокатов Республики Узбекистан от 29 февраля 2023 года №04-08-473/280.

<sup>9</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации основан на следующих источниках: <https://news.vanderbilt.edu>, [www.cam.ac.uk](http://www.cam.ac.uk), [www.journals.uchicago.edu](http://www.journals.uchicago.edu), [bjs.ojp.gov](http://bjs.ojp.gov), [www.rand.org](http://www.rand.org), [www.nccourts.gov](http://www.nccourts.gov), [www.crim.cam.ac.uk](http://www.crim.cam.ac.uk), [www.criminaldefensejapan.com](http://www.criminaldefensejapan.com), [www.arab-reform.net](http://www.arab-reform.net), [akadmvd.uz](http://akadmvd.uz).

